

EKLAMPSIYADA YO'LDOSH QON TOMIRLARINING
MORFOLOGIK QAYTA QURILISHI: KLINIK-PATOLOGIK
TAHLIL

Sh.H. Abdulloyev

UDK: 616-091-053.13-022

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Mavzuning dolzarbligi: Eklampsiya homiladorlikning eng og'ir asoratlaridan biri bo'lib, ona va homila hayoti uchun yuqori xavf tug'diradi hamda ko'pincha preeklampsianing terminal bosqichi sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu patologiya organizmda tizimli vaskulopatik o'zgarishlar, yurak-qon tomir va markaziy nerv tizimi faoliyatining og'ir buzilishlari bilan tavsiflanadi. Eklampsiya rivojlanishining patogenezi murakkab bo'lib, hozirgi kunga qadar to'liq o'rganilmagan. So'nggi yillarda olib borilgan morfologik va gistopatologik tadqiqotlar ushbu kasallik patogenezida yo'ldosh (platsenta) markaziy o'rin tutishini ko'rsatmoqda. Yo'ldosh ona va homila o'rtasida gazlar, oziq moddalar hamda metabolitlar almashinuvini ta'minlovchi muhim organ bo'lib, undagi qon tomir tizimining normal rivojlanishi fiziologik gestatsiyaning muvaffaqiyatli kechishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Eklampsiyada yo'ldosh qon tomirlarida vaskulopatik o'zgarishlar, tromboz, gialinoz, skleroz hamda boshqa patomorfologik o'zgarishlar rivojlanadi. Mazkur o'zgarishlar fetoplatsentar yetishmovchilikning shakllanishiga, homila gipoksiyasiga va perinatal asoratlar xavfining ortishiga olib keladi. Eklampsiya homiladorlik davrida kuzatiladigan og'ir gipertenziv sindrom bo'lib, odatda preeklampsiya fonida rivojlanadi. So'nggi o'n yilliklarda xalqaro miqyosda o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlarda eklampsiya patogenezining molekulyar va morfologik mexanizmlariga alohida e'tibor qaratilgan. Roberts va hammualliflari (2013), Redman va Sargent (2010), Burton va hammualliflari (2019) o'z tadqiqotlarida kasallikning asosiy patogenetik mexanizmi sifatida

yo'ldosh spiral arteriyalarining fiziologik remodellasiyasi yetarli darajada kechmasligi hamda endotelial disfunktsiyani qayd etganlar. Natijada fetoplatsentar qon aylanishi buziladi, yo'ldosh gipoksiyasi rivojlanadi va trofoblastlarning invaziv faolligi yetarli darajada amalga oshmaydi.

Shu bois eklampsiyada yo'ldosh qon tomirlarida kuzatiladigan morfologik o'zgarishlarni chuqur o'rganish kasallik patogenezini yanada to'liq tushunish, erta diagnostika mezonlarini ishlab chiqish hamda ona va homila salomatligini saqlashga qaratilgan samarali profilaktik va davolash strategiyalarini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotda eklampsiya holatlarida yo'ldosh qon tomirlarining morfologik xususiyatlari va ularning klinik ahamiyati kompleks morfologik tahlil asosida o'rganildi. Shu sababli yo'ldoshdagi morfologik o'zgarishlarni chuqur o'rganish eklampsiyani erta tashxislash hamda perinatal xavfni baholashda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi: Eklampsiyada yo'ldosh qon tomirlarida kuzatiladigan morfologik o'zgarishlarni aniqlash, ularning klinik ahamiyatini baholash hamda fetoplatsentar yetishmovchilik rivojlanishidagi o'rnini asoslash.

Material va usullar: Tadqiqotda so'nggi besh yil davomida eklampsiya oqibatida vafot etgan 35 nafar homilador ayoldan olingan yo'ldosh namunalari o'rganildi. Materiallar 10 % neytral buferlangan formalinda fiksatsiya qilinib, standart gistologik ishlov berildi, parafin blokklar tayyorlandi va gematoksilin-eozin bilan bo'yaldi. Preparatlar yorug'lik mikroskopida 10×, 20×, 40× va 100× kattalashtirishlarda baholandi. Spiral arteriyalar, xorion vorsinkalari, fetoplatsentar kapillyarlar va stromadagi morfologik o'zgarishlar tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari va muhokama: Eklampsiya bilan kechgan homiladorliklarda yo‘ldosh qon tomirlarida yaqqol vasculopatik o‘zgarishlar aniqlandi. Spiral arteriyalarda devor giyalinizatsiyasi (76 %), tromboz va fibrinoid nekroz (65 %), plazmatik ekssudatsiya hamda perivaskulyar yallig‘lanish infiltratsiyasi (72 %), vaskuloskleroz (58 %) qayd etildi. Xorion vorsinkalarida stromal skleroz, mikroinfarktlar, interstitsial ishemiya, gipovaskulyarizatsiya, sinsitiokapillyar membranalarining yetarli shakllanmaganligi hamda terminal vorsinkalarda kapillyarlarning kompensator ko‘payishi kuzatildi. Ushbu o‘zgarishlar fetoplatsentar qon aylanishining buzilishi, surunkali homila gipoksiyasi va homila rivojlanishining kechikishi bilan uzviy bog‘liq ekanligi aniqlandi.

Xulosa: Eklampsiyada yo‘ldosh qon tomirlarining morfologik shikastlanishi kasallik patogenezining asosiy bo‘g‘inlaridan biri hisoblanadi. Spiral arteriyalardagi gialinizatsiya, fibrinoid nekroz, tromboz va vaskuloskleroz uteroplatsentar perfuziyaning pasayishiga, xorion vorsinkalaridagi ishemik o‘zgarishlar esa fetoplatsentar yetishmovchilik rivojlanishiga olib keladi. Yo‘ldoshning patomorfologik baholanishi eklampsiyaning og‘irlik darajasini aniqlash, perinatal xavfni prognozlash va homiladorlikni boshqarish taktikasini takomillashtirishda muhim diagnostik mezon sifatida tavsiya etiladi.